

INSON ONGINING BIZ BILMAGAN TAMONLARI

Iskandarova Nilufar Toxirovna

Ilmiy rahbar

Yuldosheva Shahnoza Akbarjon qizi

SamDCHTI, Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda

ingiliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Bu maqolada psixeologiya yoritiladi va uning ong haqidagi tushunchalari berilib o'tadi. Zero, bu maqolada, sizga psixeologiya fanini va ong haqidagi tasavvurlarni tushunishingizga yordam beradi. Hamda psixeologiya haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishingizga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: ong, psixika, ong osti, ong usti, tafakkur, zamon, konsentratsiya makon, hodisa.

KIRISH

Psixeologiya fanida juda ko'p ilmiy termin va atamalar mavjud. Shular ichiga ong kiradi. Ong bu inson psixik faoliyatining oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi. Inson ongi murakkab va serqirra xodisadir.

U to'g'risidagi tasavvurlar juda xilma-xil bo'lib, ular kishilar bilimi va hayotiy tajribalarining turli-tumanligi bilan bog'liq. Ong, uning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish jihatlarini tushunishni aksariyat hollarda kishilarning moddiy an'analari, ularning diniy qarashlarini ham belgilaydi. Ong qudratli narsalar qila oladigan organdir. Inson ongi insonning o'zi bilmagan narsalarga qodirdir. Ya'ni ongosti degan tushuncha mavjud bo'lib, u hatto 10 yoki 20 foiz ishlaganda inson bu dunyoning barcha savollariga javob topgan bo'lardi. Bunga misol qilib, yevropalik ayolni olaylik. Yevropalik ayol yo'lda ketayotganda yo'lni



kesib o'tmoqchi bo'ladi. Shu payt mashina kelayotganini ko'radi. O'sha paytda ayol nima qilishni bilmay ongusti

faoliyati to'xtab ongosti faoliyati faollashib ketadi. Kelayotgan mashina o'z qo'llari bilan to'xtatib qoladi. Albatta bunga ishonish qiyin. Lekin ongosti rivojlanishi kuchayib ketsa, bunga ishonsa bo'ladi. Chunki, odamlarda ongostidan ko'ra ongusti ko'p ishlaydi. Agar ongosti ishlasa biz qudratli kuchga ega bo'lar edik. Masalan, ilmiy bilimlarimiz ham ko'payib, hozirda olimlarni o'ylantirayotgan savollarga javob topar edik. Ongosti shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rnatib, yig'ilib qoladi. Inson tamonidan avto- tik, instiktiv tarzda sodir etiladigan, himoya mexanizmi rolini bajaradigan va miyani doimiy zo'riqishdan himoya qiladigan ko'pgina harakatlar ongosti tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi. Ongosti inson miyasida doimiy tarzda faollashib boradi. Hozir ham bizning ongostimiz sakkiz yoki to'qqiz foizlar atrofida ishlaydi. Ayrim olimlarda bu ko'rsatgich o'n foizni

ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, ongostimiz sakkiz yoki to'qqiz foiz ishlasa ham biz shu kunga qadar juda ko'p yutuqlarga erishdik. Ong tafakkurni vujudga keltiradi. Tafakkur esa reallikni. Biz biror narsa haqida o'ylasak, ko'pincha o'sha narsa ro'y beradi. Yoki tush ko'rsak ham ko'pincha

tushlarimiz o'ngidan keladi. Buning sababi o'sha o'ylagan o'ylarimiz, ko'rgan tushlarimiz ongostining ta'siridan sodir bo'ladi. Ongosti kelajakda sodir bo'lmoqchi bo'lgan voqealarni sizning o'ylaringiz yoki tushlaringizda aks ettiradi. Masalan, ko'pchilik hayotida biror voqeaga guvoh bo'lsa, o'sha holat ham oldin bo'lgandek tuyuladi. Shu o'rinda menda ham kuzatilgan. Bir

kuni dadam mendan: "Qizim, bosh og'rig'iga qarshi dorisini qayerdaligini bilmaysanmi? Iltimos menga topib ber! Boshim qattiq og'riyapti"- dedilar va men dadamga dorini topib berdim. O'sha paytda boshqacha bo'lib ketdim. O'sha voqea, o'sha holat, o'sha uyimiz xuddi oldin ham bo'lgandek tuyuldi. Xuddiki o'zimni kelajakka borib kelgandek his qildim. Albatta bunday holatlar menda juda ko'p kuzatilgan. Bunday holat o'ylar va tushlarning aralashishi bo'ladi. Siz shu holatni tushizda yoki hayotizda boshqa bir voqea bilan o'xshatishingiz mumkin. Lekin o'sha holat ikki marta takrorlanishi mumkin emas. Chunki, biz tushgan daryoga ikkinchi marta tusholmaymiz.

Shunday ekan hech bir voqea, hodisa, joy, makon, ikkinchi marta sodir bo'lolmaydi. Shunchaki



sizning o'sha paytdagi o'y fikrlaringiz chalkash bo'lib qoladi. Bu ham ongostiga bog'liqdir. Ong-osti yaxshi rivojlanmaganligi sababli bunday voqealarni farqlay olmay qolasiz. Ko'pchilik odamlar ya'ni ijobiy fikrlaydigan odamlar ko'p muvaffaqiyatlarga erishadi. Salbiy fikrlaydiganlar esa unchalik ham omadi kelavermaydi. Bu ham ongosti faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Misol uchun ijobiy fikrlaydiganlar nimagadir qo'l urmoqchi bo'lsa, nimadir qilmoqchi bo'lsa, oldiga qanday maqsad qo'ysa ham faqat yaxshi va ijobiy tamonlarini o'ylaydi. Ularni ijobiy o'ylaganlari ong-ostiga ta'sir qiladi. Ongosti esa tafakkurni vujudga keltiradi. Tafakkur til va reallikka o'tadi.

O'ylagan maqsadini tiliga o'tkazib, harakat qilar ekan, o'sha maqsadga albatta erishadi. Salbiy fikrlaydigan odamlar maqsadga erishishdan qo'rqib, uni salbiy taraflarini o'ylaydi. " Bu ish menga omad keltiradimi? Agar bu ishni qilsam bunday bo'lsachi? Odamlar bu fikrimni maqullaydimi? Muvaffaqiyatsizlikka erishsam nima bo'ladi? Men qila olmasamchi?"- degan o'y fikrlar uni tiliga va reallikka o'tkazib qo'yadi. Qo'rquvi esa ongostiga ta'sir qiladi. Ongostidagi ta'sir insonni o'ziga ham ta'sir qiladi va inson o'sha istagan orzusiga erisha olmaydi. Shunchaki inson o'ziga ishonsa, qo'rqmasa, harakat qilsa albatta istagan maqsad va orzusiga erishadi. Bu xuddi konsentratsiya qonuniga o'xshaydi. Unda ham, masalan siz nima haqida o'ylasangiz, hajmi kattalashadi. Biror narsa haqida qanchalik ko'p o'ylasangiz, u sizning hayotingizga shunchalik chuqur kiradi. Bu ma'lum darajada sabab va natija qonunidir. Muvaffaqiyat va baxt butun diqqatini biror narsaga qarata oladigan va jarayon tugaguniga qadar uni qarovsiz qoldir maydigan odamlarga beriladi. Ongosti faoliyat qonuni shunday deydi: Ong tamonidan haqiqat sifatida qabul qilingan har qanday g'oya va fikr ong tamonidan to'liq qabul qilinadi va uni darhol amalda qo'llaydi. Siz biron bir loyiha yoki harakatni amalga oshirish imkoniyatiga ishonishni boshlaganingizdan so'ng ongingiz odamlarni, yangi fikrlaringizga mos keladigan sharoitlarni o'ziga jalb qiladigan aqliy energiya ishlab chiqarishni boshlaydi. Ongdan tashqari odamlarning hatti harakatiga, uning butun ruhiy olamiga g'ayrushuuriy jihatlar va ongosti katta ta'sir qiladi.

Shu ikki komponent – ong va ongosti – bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazadi, ular ular ajralmasdir. Ifodali qilib aytganda, qattiq o'zaro ta'sir va nazorat ostida bo'ladi. Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra, ongi borib yetmagan, anglab olinmagan psixik faoliyati shunday sezgilar, idroklar va tasavvurlarni o'z ichiga oladi-ki, bazan ularga odamni aqli yetmaydi. Odam ob'ektga qaraydi-yu uni ko'rmaydi, payqamaydi, eshitadi-yu eshitganini idrok eta olmaydi. Ongosti sohasi ruhiy borliqning tush, gipnoz holati, anglab olinmagan istak, sub'ektning hayotidagi noxush voqea



arafasida oldindan his qilingan qo'rquv kabi shakllarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A.Axmedova."Falsafa".Toshkent,2018-yil[2,394]
2. Q.Nazarov."Falsafa asoslari".Toshkent,2012-yil[2,447].

